

№466, 21-yanvar, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 20-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	339 261 800	(+ 3 519 344)
Sog'ayganlar soni	-	273 083 158	(+ 1 870 437)
Vafot etganlar soni	-	5 583 410	(+ 8 947)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	69 808 350	(+ 710 928)
	Hindiston	-	38 218 773	(+ 317 532)
	Braziliya	-	23 420 861	(+ 205 310)
	Buyuk Britaniya	-	15 506 750	(+ 108 069)
	Fransiya	-	15 175 464	(+ 436 167)
	Rossiya	-	10 899 411	(+ 33 899)
	Turkiya	-	10 664 372	(+ 72 615)
	Italiya	-	9 219 391	(+ 192 320)
	Ispaniya	-	8 676 916	(+ 157 941)
	O'zbekiston	-	209 578	(+ 1 307)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 19-yanvar holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 080 164	4 663
Andijon viloyati	3 903 763	8 837
Buxoro viloyati	2 284 244	6 625
Jizzax viloyati	1 429 360	1 836
Qashqadaryo viloyati	3 114 346	8 433
Navoiy viloyati	1 321 688	1 998
Namangan viloyati	3 836 964	7 172
Samarqand viloyati	4 973 183	15 110
Surxondaryo viloyati	3 267 803	8 285
Sirdaryo viloyati	888 626	1 920
Toshkent viloyati	3 868 854	11 834
Farg'ona viloyati	4 465 297	11 877
Xorazm viloyati	2 466 543	7 416
Toshkent sh.	3 127 799	18 425
<b>Jami</b>	<b>41 028 634</b>	<b>114 431</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



## “Omicron” shtammiga qarshi yangi vakcina joriy qilindi

Fransiyada joylashgan Valneva biotexnologik kompaniyasining ta’kidlashicha, VLA2001 koronavirus vaksinasining uch dozasi bo’yicha dastlabki olib borilgan tadqiqotlar “Omicron” shtammini zararsizlantirishda samaradorligini ko’rsatdi [2].

Sinovning birinchi bosqichida vakcina 30 tadqiqot ishtirokchisining qon zardobida koronavirusning barcha variantlarini zararsizlantirishni tahlil qilish uchun foydalanildi. Natijada, barcha namunalar asl “Delta” va “Omicron” shtammiga qarshi neytrallashtiruvchi antitanalarni ishlab chiqdi. VLA2001 87% hollarda COVID-19 ning yangi variantini kuchsizlantirdi.



“Biz ushbu natijalardan juda mamnunmiz, mazkur inaktivalangan butun virusli vaksinamizning keng spektrli himoya potensialini va uning mavjud shtamlarga qarshi kurashish qobiliyatini tasdiqlaydi. VLA2001 COVID-19 ga qarshi kurashda muhim komponent bo’lishi mumkinligiga ishonishda davom etib, Valneva preparatini imkon qadar tezroq muhtoj odamlarga yetkazishga harakat qilamiz”, - dedi Xuan Karlos Jaramillo kompaniya veb-saytida.



# Nemis olimlari bir nechta perparatlar yordamida COVID-19 ga qarshi emlash imkoniyatlarini aniqladilar

Germaniyalik olimlarining ta'kidlashicha, bir inson ikkita perparat bilan emlangan bo'lsa, bu noxush hodisalarni rivojlanish xavfini oshirishi muumkin. Taqqoslash maqsadida, ular AstraZeneca yoki Oksford (Vaxzevria) tomonidan ishlab chiqarilgan vektor vaksinasining ikki dozasini olgan bemorlarning ma'lumotlarni o'rgandilar [3].

Shuningdek, tadqiqotda ishtirok etish uchun nemis olimlari 213 nafar Germaniya fuqarosi, 663 nafar Ispaniya fuqarosi, shuningdek, 830 nafar britaniyalikni taklif qilishdi. Ishtirokchilarning taxminan 1/3 qismi turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan vaksinalar bilan emlangan.

Nemis olimlari o'z vatandoshlarining salomatlik holatini o'rganar ekan, nojo'ya ta'sirlarning o'sishini aniqladilar. Biroq, hayot va sog'liq uchun tahdid sifatida baholanishi kerak bo'lgan oqibatlar topilmadi. Xuddi shunday xulosalar ispan va britaniyalik ko'ngillilarni tekshirishda ham chiqarilgan [4].



Nemis olimlari ish natijalariga ko'ra, bunday emlashdan asoratlanish xavfi har 1000 emlangan kishiga taxminan 7-30 kishida kuzatilishi mumkin degan xulosaga kelishdi. Biroq, biz jiddiy oqibatlar haqida gapirmayapmiz, ikki xil vaksina bilan emlanganlarda, inyeksiya joyida og'riq, bosh og'rig'i va antipiretiklarni qabul qilish zarurati bilan isitma kuzatildi.

# Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, vaktsina uzoq muddatli COVID-19 holatlarini kamaytirishi mumkin

Yangi tadqiqot natijalariga ko'ra, ilgari emlanmagan odamlarga nisbatan ikki dozali vaktsinani olgan va virusni yuqtirganlar orasida COVID-19 ning eng tez-tez yuzaga keladigan uzoq muddatli holatlari sezilarli darajada kamaygan. Bu haqda Arutz Sheva xabar berdi [5].

Emlangan va kasallikni o'tkazgan odamlarda virus, hech qachon kasal bo'lmaganlarga qaraganda bu alomatlar paydo bo'lish ehtimoli kamroq bo'lgan. Ushbu natijalarga ko'ra, COVID-19 vaktsinasining ikki dozasi COVID dan uzoq muddatda himoya qiladi. Ammo bu natijalar bitta dozani olgan insonlarda kuzatilmadi.



Tadqiqotni Safeddagi Bar-Ilan Azriyeli universiteti tibbiyot fakulteti professori Maykl Edelshteyn uchta fakultet kasalxonasi Ziv tibbiyot markazi, Baruch Pade tibbiyot markazi va Galiley tibbiyot markazi bilan hamkorlikda olib bordi. Tadqiqot natijalari medRxiv preprint serverida chop etildi.

3000 dan ortiq insonlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot emlangan odamlarda ta'sir qilishdan 4-11 oy o'tgandan keyin charchoq, bosh og'rig'i, holsizlik va mushak og'rig'i kabi o'nta eng keng tarqalgan uzoq muddatli simptomlardan yettitasi emlanmaganlarga nisbatan 50-80 foizga kamayganligini ko'rsatdi [6].



# Intranazal COVID-19 vaksinalari uchun oqsillar o'simlik barglarida sintez qilindi

Rossiyalik biotexnologlar SARS-CoV-2 ga qarshi kuchaytiruvchi vaksinani olish uchun koronavirusning “tikan” segmenti va salmonellalar flagellumidan olingan molekulani birlashtirdi. Agar u burunga tomizilsa, eng samarali natijani ko'rsatadi. Rossiya Fanlar akademiyasining Biotexnologiya bo'yicha Federal tadqiqot markazi (FRC Biotechnology RAS) xodimlari o'simlik hujayralarida bunday “ehtiyot qismlardan yig'ilgan” oqsilni qanday ishlab chiqarishni o'rganishdi. Tadqiqot haqidagi maqola *Plants* jurnalida chop etilgan [7, 8].



“Ushbu oqsil koronavirus infeksiyasiga qarshi yangi intranazal vaksinalar uchun asos bo'lishi mumkin. Bakterial flagellin oqsili qo'shilishi sababli ular mahalliy immun reaksiyasini ham, butun organizmning immun reaksiyasini keltirib chiqarishi kerak. Umid qilamizki, bu yondashuv dori ishlab chiqarish arzonlashadi va emlashning o'zi ham qulayroq, tez va oson bo'ladi”, dedi mualliflardan biri, Rossiya Fanlar akademiyasi Biotexnologiya bo'yicha Federal tadqiqot markazi laboratoriyasi rahbari Nikolay Ravin.

Ravin va uning hamkasblari vaksinalarning oqsil komponentlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida tamaki barglaridan ancha arzon va oson ishlov berish mumkinligini aniqladilar. Olimlar salmonella oqsillari va SARS-CoV-2 konvertining tarkibiy qismlariga asoslangan eksperimental intranazal COVID-19 vaksinasini ishlab chiqishda shunday xulosaga kelishdi.

Olimlar taklif qilganidek, koronavirus qobig'ining tarkibiy qismlariga bakterial oqsillarning qo'shilishi immunitet tizimining vaksinaga faolroq javob berishiga olib keladi, bu esa koronavirusdan ishonchli himoyani shakllantirishga olib keladi. Ushbu gipotezani sinab ko'rish uchun biotexnologlar *Nicotiana benthamiana* tamaki turi hujayralariga DNK ko'rsatmalarini kiritgan virusni yaratdilar.

Vaksinalarni ishlab chiqarishga bunday yondashuv, olimlar ta'kidlaganidek, ularni ishlab chiqarishning boshqa usullari bilan yaxshi taqqoslanadi, sababi zararlangan tamaki yetishtirish maxsus ekologik sharoitlarni talab qilmaydi va unga ta'sir qiluvchi virusni olish va ko'paytirish juda oson [9].





COVID  
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (20.01.2022)
2. Появилась новая вакцина против омикрон-штамма // [https://news.rambler.ru/tech/47969535/?utm\\_content=news\\_media&utm\\_medium=read\\_more&utm\\_source=copylink](https://news.rambler.ru/tech/47969535/?utm_content=news_media&utm_medium=read_more&utm_source=copylink) (20.01.2022)
3. Прививаться разными вакцинами опасно или, наоборот, это поможет иммунитету? Все, что об этом известно // <https://hightech.fm/2022/01/19/different-vaccine> (20.01.2022)
4. Можно ли прививаться от коронавируса COVID-19 разными препаратами // <https://www.belnovosti.by/krasota-i-zdorove/mozhno-li-privivatsya-ot-koronavirusa-covid-19-raznymi-preparatami> (20.01.2022)
5. Study: Vaccine may reduce cases of 'long COVID' // <https://www.israelnationalnews.com/news/320752> (20.01.2022)
6. Исследование: вакцина может снизить количество случаев "длительного COVID" // <https://cursorinfo.co.il/coronavirus/issledovanie-vaktsina-mozhet-snizit-kolichestvo-sluchaev-dlitelnogo-covid/> (20.01.2022)
7. Белки для интраназальных вакцин от COVID-19 синтезировали в листьях табака // <https://poisknews.ru/themes/biologiya/belki-dlya-intranazalnih-vakczin-ot-covid-19-sintezirovali-v-listyah-tabaka/> (20.01.2022)
8. High-Yield Production of Receptor Binding Domain of SARS-CoV-2 Linked to Bacterial Flagellin in Plants Using Self-Replicating Viral Vector pEff // <https://www.mdpi.com/2223-7747/10/12/2682> (20.01.2022)
9. Листья табака превратили в "фабрику" белков коронавируса // <https://nauka.tass.ru/nauka/13470747> (20.01.2022)







O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022